

INGLIZ TILINI O'QITISHDA O'YIN TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI VA SAMARADORLIGI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10341387>

Taxmina Yunusovna Mukaramxodjayeva

Samarqand Davlat Chet Tillar Instituti Til va Tarjima kafedrasi assistant o'qituvchisi

Abstarct

This article presents game technologies that are effective in language teaching and shows the effectiveness of its practical application

Key words

pedagogy, game, technology, non-traditional.

Anotatsiya

Mazkur maqolada til o'rgatishda samarali bo'lgan o'yin texnologiyalari keltirilib, uni amaliyotda tadbiq qilish samarasi ko'rsatilgan

Kalit so'zlar

pedagogic texnologiya, no an'anaviy,o'yin, passiv va aktiv foydalanuvchi

Zamonaviy ingliz tilini o'qitishda turli ilg'or pedagogik texnologiyalar hamda interfaol usullardan foydalanish o'qitish tizimini har tomonlama mukammallashtiradi. Zamonaviy chet tili o'qituvchisi an'anaviy dars metodlari o'rniga yangi ped texnologiyalardan dan foydalangan holda, interfaol usullar asosida dars jarayonini tashkil qilishi maqsadga muvofiqdir. Zero an'anaviy ta'lif shakllari talabalarni passiv foydalanuvchi sifatida ko'rib, ma'lumotlarni faol ravishda muhokama qilish, tahlil qilish imkonini bermaydi.

Mazkur maqolada turli o'yinlar yordamida ingliz tilini o'rgatishni tahlil qilar ekanmiz, avvalo ushbu o'yinlarnig turi va samarasiga e'tibor qaratishimiz lozim. Psixologlarning ta'kidlashicha o'yinli faoliyat talabalarda o'zini namoyon qilish, o'z-o'zini boshqarish, tezkor fikrlash kabi ko'nikmalarni rivojlantirish xususiyatiga ega.

"Chigil yozdi" (Warm-up exercises)bu o'quvchilarni darsga qiziqtirish uchun sinfda har xil o'yinlardan foydalanish texnologiyasi hisoblanadi , va dars boshlanishida qo'llanilib talabalarni diqqatini jamlashga yordam beradi. Masalan, so'z boyligi musobaqasida (vocabulary race) talaba berilgan rasmga qarab turli so'zlarni topishi lozim. Bunda oddiy, yasama, qo'shma so'zlarni tezkorlik bilan eslash kerak bo'ladi. Talabalarni bilim darasjasiga qarab turli rasmlar tanlash

mumkin bo'lib ushbu tanlangan tarqatma material fan mavzusi bilan bevosita bog'langan bo'ladi.

Eng qiziqarli metodlardan biri - «Pantomimo» o'yinida 3 guruhga ajratiladi. Har bir guruhdan bittadan kishi doskaga chiqariladi. Ularga turli so'zlar ro'yxat asosida beriladi. Ular biror bir so'z aytmasdan imo-ishoralar, harakatlar orqali so'zlarni qolgan guruh a'zolariga tushuntirishlari kerak. Ushbu o'yin turli mashqlar, qiyinroq o'quv materiallaridan keyin talabalar charchagan vaqtida qo'llanilishi auditoriya kayfiyatiga sezilarli darajajda yaxshi ta'sir qiladi hamda talabalarga mavzu asosidagi so'zlarni takrorolash imkonini beradi

Turli metodlar chet tilini puxta o`zlashtirishda asos vazifasini o`taydi. Shunday metodlardan biri bu dars jarayonida rolli o`yinlardan foydalanishdir. Rolli o`yinlar bu real hayotimizdagи turli situasiyalarni chet tili o`rganish jarayonida qo'llashdir. Bu metod dars jarayonida til muhitini yaratishga yordam beradi ya'ni o'quvchilar real holatlarga kirishish yordamida tilni erkin qo'llash, tezkor fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Rolli o`yinlarga tayyorlanish davomida esa talabalar o'zaro muloqorga kirishish, bir birlarininig leksik, grammatik va talaffuzdagi xatolarini to`g`irlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Xato qilib va shu xatoni to`g`irlash ham tilni o`rganishga yordam beradi va talabalarni to`g`ri talaffuzga o`rgatadi. Dars jarayonida rolli o`yinlardan foydalanish bir vaqtning o`zida barcha talabalarni darsda aktiv ishtirok etishlarini ta'minlaydi. Bundan tashqari rolli o`yinlar talabalarning chet tilini o`rganishga qiziqishini oshiradi va dars jarayoniga jonli, quvnoq muhitni yaratadi. Bu esa chet tili darslarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Ingliz tili darslarida innovatsion usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatları rivojlanadi, nutqi ravonlashadi, tez va to'g'ri javob berish malakasi shakllanadi. Bunday usullar o'quvchida bilimga ishtiyooq uyg'otadi. O'quvchi darslarga puxta hozirlilik ko'rishga intiladi. Bu esa o'quvchilarni ta'lim jarayonining faol sub'yektlariga aylantiradi. Ta'lim tizimi o'z oldiga erkin fikrlovchi, barkamol, yetuk shaxsni tarbiyalashni vazifa qilib qo'yar ekan, kelgusida biz bo'lajak o'qituvchilar innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish yo'llarini yanada mukammalroq ishlab chiqshimizimiz bilan o'z xissamizni qo'shishimiz mumkin.

REFERENCES:

1. Bolinger, D. 1968. Aspects of Language. New York: Harcourt Brace Jovanovich

2. Konyshova, A. V. Game Method in Teaching Foreign Languages - [Text] / A. V. Konyshov. - St. Petersburg: Karo, Mn .: Four Quarters Publishing House, 2008. - S. 55 - 89.
3. Gladilina, I.P. Some methods of work in English lessons in elementary school / I.P. Gladilina // IYASH. - 2003. - No. 3. - S. 41 - 43.
4. Taxmina Yunusovna Mukaramxodjayeva "INTERACTIVE METHODS OF TEACHING LANGUAGE" Международный научный журнал № 8(100), часть 3 «Научный импульс» Март , 2023
5. Taxmina Yunusovna Mukaramxodjayeva "TEACHING KIDS THROUGH ACTIVITIES" SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH" International scientific online conference, 2023
6. Sadullayeva Gulshirin Ilhomovna. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA 20-SON ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI 20.06.2023 "ADVANTAGES AND DISADVANTAGES OF LEARNING A FOREIGN LANGUAGE AT AN EARLY AGE"